


**ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

*60720900 – Foydali qazilma konlari geologiyasi,
qidiruv va razvedkasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining*

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil "25" 06 dagi 218 – sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	6
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	7
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	8
5.	Dual ta'lim bo'yicha o'qitishga qo'yiladigan talablar	9
	Bibliografik ma'lumotlar	10
	Kelishuv varag'i	11

1. Umumiy tavsifi

60720900 – Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talablari 60720900 – Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Foydali qazilma konlari geologiyasi, ularni qidirish va razvedka qilish sohasini rivojlantirishga, soha istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, texnologiyalari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

Davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va soha korxonalarida muhandis-geolog.

60720900 – Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *loyihaviy-konstruktorlik;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60720900 – Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

respublika va xorijda chop etilgan energetikaga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish.

amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalaridan foydalanish;

ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish va mavjud muammolarni tahlil qila olish;

qattiq, neft va gaz konlarini yer po'stida joylashish qonuniyatlarini bilish hamda qidirish uslublarini qo'llay olish;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish;

ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;

geologiya-qidiruv ishlarida geofizik tizimlar, burg'ilash qurilmalari, shuningdek neft va gaz uchun burg'ilash quduqlarda geofizik tadqiqotining natijalarini qayta ishlash, ulardan foydalanish samaradorligini oshirishda va monitoring qilishda ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha yechimlarni ishlab chiqish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy iqtisodiy bilim va tajribalarni qo'llash orqali boshqarish;

ishlab chiqarish jarayonlarida atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi me'yorlarini bilish va ishda qo'llash;

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

kasbga oid muammolarning yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

birlamchi ishlab chiqarish bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

geologiya-qidiruv ishlari jarayonlarini loyihalash, neft va gaz uchun izlov va qidiruv ishlarini loyihalash, texnologik jarayonlar va mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

geologiya-qidiruv ishlari jarayonida asosiy uskunalarni ekologik talablar va ishlarni amalga oshirishda xavfsizlikni ta'minlashni inobatga olgan holda loyihalash ishlarida ishtirok etish;

bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish, loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish, bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish, qattiq foydali qazilma va neft va gaz quduqlarini burg'ilash uchun geologik-texnik naryad, loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

kasbiy faoliyatda tabiiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, matematik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo'llay olishi;

og'zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va meyorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko'rib chiqish, o'z-o'zini rivojlantirish, malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o'zgartirishga qodir bo'lishi;

ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunishi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarning oldini ola bilishi;

axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

qattiq foydali qazilma konlarida qidirish, baholash va razvedka qilish ishlari jarayonlarini bajarish, maromiga yetkazish, geologiya-qidiruv ishlarida burg'ilash dastgohlari, quduqlarni burg'ilashning maqsad va vazifalarini bilish va ular asosida foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish jarayonlarini amalga oshirish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

qattiq foydali qazilma va neft va gaz konlarini hosil bo'lishi hamda yer po'stida joylashishining o'ziga xos xususiyatlarini bilishi, ularni qidirish usullarini bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

qattiq, neft va gaz kabi foydali qazilma konlarini qidirish amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

bajarilgan ishlar bo'yicha hisobot tuzish, berilgan uslublar bo'yicha eksperimentlarni qo'yish va bajarish usullarini egallash ko'nikmalariga ega bo'lish.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha birinchi bosqich ikkinchi semestrda 5 haftalik, ikkinchi bosqich to'rtinchi semestrda 5 haftalik, uchinchi bosqich oltinchi semestrda 6 haftalik hamda uning davomi sifatida ta'tildan so'ng to'rtinchi bosqich yettinchi semestrning birinchi haftasidan boshlab 9 haftalik uzluksiz malakaviy amaliyotlar o'tkaziladi.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00	Majburiy fanlar				
1.01	O'RT1104	O'zbek (rus) tili	120	4	1
1.02	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	KIM1104	Kimyo	120	4	1
1.04	XT13408	Xorijiy til	240	8	3, 4
1.05	FIZ11208	Fizika	240	8	1, 2
1.06	OM11210	Oliy matematika	300	10	1, 2
1.07	O'EYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.08	MKG1204	Muhandislik va kompyuter grafikasi	120	4	2
1.09	GEODT1104	Geodeziya va topografiya	120	4	1
1.10	FAL1604	Falsafa	120	4	6
1.11	SGGX13408	Strukturalar geologiyasi va geologik xaritalash	240	8	3, 4
Uran konlari bo'yicha majburiy fanlar*					
1.12	GIT1306	Geologiyada informatsion tizimlar	180	6	3
1.13	UG11210	Umumiy geologiya	300	10	1,2
1.14	GEOF1505	Geofizika	150	5	5
1.15	MIN1306	Mineralogiya	180	6	3
1.16	PET1404	Petrografiya	120	4	4
1.17	PS1306	Paleontologiya va stratigrafiya	180	6	3
1.18	GMG1404	Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi	120	4	4
1.19	QB1404	Quduqlarni burg'ilash	120	4	4
1.20	FQG1404	Foydali qazilmalar geologiyasi	120	4	4
1.21	REM15608	Radioaktiv elementlar minerologiyasi	240	8	5, 6
1.22	REKSGT15608	Radioaktiv elementlar konlarining sanoat-genetik turlari	240	8	5, 6
1.23	URQOT1806	Uran rudalarini qazib olish texnologiyasi	180	6	8
1.24	YXMTQIA15608	Yader xomashyo materiallari texnologiyalari va qayta ishlash asoslari	240	8	5, 6
1.25	REG17808	Radioaktiv elementlar geokimyosi	240	8	7,8
2.00	Tanlov fanlari		1680	56	2,3,5,6,7,8
Kvalifikatsiya		Muhandis-geolog (uran konlari bo'yicha)			
Ko'mir konlari bo'yicha majburiy fanlar*					
1.12	GIT1306	Geologiyada informatsion tizimlar	180	6	3

1.13	UG11210	Umumiy geologiya	300	10	1,2
1.14	GEOF1505	Geofizika	150	5	5
1.15	MIN1306	Mineralogiya	180	6	3
1.16	PET1404	Petrografiya	120	4	4
1.17	PS1306	Paleontologiya va stratigrafiya	180	6	3
1.18	GMG1404	Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi	120	4	4
1.19	QB1404	Quduqlarni burg'ilash	120	4	4
1.20	FQGB302	Foydali qazilmalar geologiyasi	120	4	4
1.21	LIT15608	Litologiya	240	8	5,6
1.22	FQKQB15608	Foydali qazilma konlarini qidirish va bashoratlash	240	8	5,6
1.23	FT1806	Formatsion tahlil	180	6	8
1.24	KTQU15608	Ko'mirlarni tadqiqot qilish usullari	240	8	5,6
1.25	KP17808	Ko'mir petrografiyasi	240	8	7,8
2.00		Tanlov fanlari	1680	56	2,3,5,6,7,8
Kvalifikatsiya		Muhandis-geolog (ko'mir konlari bo'yicha)			
Qattiq foydali qazilma konlari (fundamental geologiyada) bo'yicha majburiy fanlar*					
1.12	GIT1306	Geologiyada informatsion tizimlar	180	6	3
1.13	UG11210	Umumiy geologiya	300	10	1,2
1.14	GEOF1505	Geofizika	150	5	5
1.15	MIN1306	Mineralogiya	180	6	3
1.16	PET1404	Petrografiya	120	4	4
1.17	PS1306	Paleontologiya va stratigrafiya	180	6	3
1.18	GMG1404	Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi	120	4	4
1.19	QB1404	Quduqlarni burg'ilash	120	4	4
1.20	FQG1404	Foydali qazilmalar geologiyasi	120	4	4
1.21	FQKQB15608	Foydali qazilma konlarini qidirish va bashoratlash	240	8	5,6
1.22	QFQHN15608	Qattiq foydali qazilmalarni hujjatlashtirish va namunalash	240	8	5,6
1.23	O'MXB1806	O'zbekistonning mineral xom ashyo bazasi	180	6	8
1.24	MXO'LU15608	Mineral xomashyoni o'rganishning laboratoriya usullari	240	8	5,6
1.25	FQKRQGIB17808	Foydali qazilma konlarini razvedka qilish va geologik-iqtisodiy baholash	240	8	7,8
2.00		Tanlov fanlari	1680	56	2,3,5,6,7,8
Kvalifikatsiya		Muhandis-geolog (qattiq foydali qazilmalar bo'yicha (fundamental geologiyada))			
Qattiq foydali qazilmalar konlari (amaliy geologiyada) bo'yicha majburiy fanlar					
1.12	AG1304	Amaliy geofizika	120	4	3
1.13	TTAT1204	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	120	4	2

1.14	MS1304	Metrologiya va standartlashtirish	120	4	3
1.15	SIM1504	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	120	4	5
1.16	EKO1604	Ekologiya	120	4	6
1.17	HFX1704	Hayot faoliyati xavfsizligi	120	4	7
1.18	UTG11210	Umumiy va tarixiy geologiya	300	10	1, 2
1.19	KM13408	Kristollografiya va mineralogiya	240	8	3, 4
1.20	PET13410	Petrografiya	300	10	3, 4
1.21	FQGST14509	Foydali qazilmalarning genetik va sanoat turlari	270	9	4, 5
1.22	FQKQRQA15609	Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish asoslari	270	9	5, 6
1.23	FQKQB16710	Foydali qazilma konlarini qidirish va bashoratlash	300	10	6, 7
1.24	FQKRQGIB1705	Foydali qazilma konlarini razvedka qilish va geologik-iqtisodiy baholash	150	5	7
2.00		Tanlov fanlari	1650	55	3-7
Kvalifikatsiya		Muhandis-geolog (qattiq foydali qazilmalar bo'yicha (amaliy geologiyada))			
Neft va gaz bo'yicha majburiy fanlar					
1.12	AG1304	Amaliy geofizika	120	4	3
1.13	TTAT1204	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	120	4	2
1.14	MS1304	Metrologiya va standartlashtirish	120	4	3
1.15	SIM1504	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	120	4	5
1.16	EKA1604	Ekologiya	120	4	6
1.17	HFX1704	Hayot faoliyati xavfsizligi	120	4	7
1.18	UTG11210	Umumiy va tarixiy geologiya	300	10	1, 2
1.19	KM13408	Kristollografiya va mineralogiya	240	8	3, 4
1.20	NGGG13410	Neft va gaz geologiyasi va geokimyosi	300	10	3, 4
1.21	NGKLT14509	Neftgaz komplekslari: litologiya va tabiiy saqlagichlar	270	9	4, 5
1.22	NGKGG15609	Neft va gaz konlari geologiyasi hamda gidrogeologiyasi	270	9	5, 6
1.23	IRQLZH16710	Izlov va razvedka quduqlarini loyihalash va zaxiralarni hisoblash	300	10	6, 7
1.24	NGKIGM1705	Neft va gaz konlarini izlashning geofizik metodlari	150	5	7
2.00		Tanlov fanlari	1650	55	3-7
Kvalifikatsiya		Muhandis-geolog (neft va gaz bo'yicha)			
Geofizik usullar bo'yicha majburiy fanlar					
1.12	AG1304	Amaliy geofizika	120	4	3
1.13	TTAT1204	Texnik tizimlarda axborot	120	4	2

		texnologiyalari			
1.14	MS1304	Metrologiya va standartlashtirish	120	4	3
1.15	SIM1504	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	120	4	5
1.16	EKO1604	Ekologiya	120	4	6
1.17	HFX1104	Hayot faoliyati xavfsizligi	120	4	7
1.18	UTG11210	Umumiy va tarixiy geologiya	300	10	1, 2
1.19	KM13408	Kristollografiya va mineralogiya	240	8	3, 4
1.20	RYG13410	Radiometriya va yadroviy geofizika	300	10	3, 4
1.21	GM14509	Gravirazvedka va magnitorazvedka	270	9	4, 5
1.22	SMR15609	Seysmorazvedka	270	9	5, 6
1.23	ELKTR16710	Elektrozazvedka	300	10	6, 7
1.24	TT1705	Tektonofizika va tektodinamika	150	5	7
2.00		Tanlov fanlari	1650	55	3-7
	Kvalifikatsiya	Muhandis-geofizik (geofizik usullar bo'yicha)			
		Jami (*):	6060 (6150*)	202 (205*)	
		Malakaviy amaliyot (*)	1140 (750*)	38 (25*)	2,4,8 (2,4,6,7*)
		Bitiruv malakaviy ishi*	300*	10*	8*
		HAMMASI	7200	240	

* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 iyundagi "Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tizimida Geologiya fanlari universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4740-sonli va 2022 yil 2 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tizimidagi geologiya fanlari universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-154-sonli qarorlarida belgilanga vazifalardan kelib chiqib Geologiya fanlari universiteti uchun ishlab chiqilgan.

5. Dual ta'lim bo'yicha o'qitishga qo'yiladigan talablar.

Dual ta'lim kadrlar iste'molchilarining talablaridan kelib chiqqan holda kerakli amaliy bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun ishlab chiqarish korxonalarida ta'lim jarayonlari tashkil etiladi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, loyiha-qidiruv, tog' jinslar, geologik strukturalar, burg'i quduqlari, tamponaj materiallari, yuvuvchi suyuqlik turlari, burg'ilash mashina va mexanizmlari, burg'ilashda avtomatlashtirish, elektron asbob va uskunalar, burg'ulash usullari, tog' jinslarni parchalash, olmosli karonkalar, kern, kern namunasi, shlam namunasi, kernlarni xujjatlashtirish, foydali qazilmalar, namunalash, geologik kesma, geologik xaritalash, qidirish mezonlari, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Rektor  akad. S.M. Turabdjano

202_ yil _____



KADRLAR ISTE'MOLCHILARI TOMONIDAN KELISHILGAN
O'zbekiston Respublikasi tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi

Innovatsiyalar, fan va ta'lim bo'limi boshlig'i  O. Qodirov

202__ yil «__» _____

M.O'



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Geologiya fanlari universiteti

Direktor  M. Boltabayev

Rektor  M.U. Isoqov

202_ yil «__» _____
M.O'

202_ yil «19» _____
M.O' 06

«Mineral resurslar instituti» DM

«O'zbek geologiya qidiruv» AJ

Direktor  I.B. Turamurov

Rais  Sh.P. Alimov

202_ yil «__» _____
M.O'

202_ yil «__» _____
M.O'

